

TURKISTONDA RUS-TUZEM VA YANGI USUL MAKTABLARI FAOLIYATI

Qahhorova Madina

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20320516>

Annotatsiya: Mustaqil O'zbekistonimizda bugungi kunda jahon ta'lim standartlariga javob beruvchi, tanqidlar va muhokamalar asosida shakllangan, rivojlangan davlatlar tajribasi qo'llash orqali vujudga kelgan ta'lim tizimimiz mavjud. Ushbu ta'lim tizimini yaratishda va hozirgi holatga kelishida, albatta milliy o'zligimiz, xalqimizning fikri, mentalitetimiz va muqaddas dinimiz ham hisobga olingan. Va biz bu ta'limdan faxrlansak arziydi. Ushbu maqolada mana shunday sinovlarda toblanib turli baxs-munozalarda o'tib biz ko'rib turgan holatga kelguncha ta'lim tizimi qay holatda bo'lganligi, xususan, xalqimiz eng og'ir sinovlarni boshidan o'tkazgan Chor Rossiya mustamlakachiligi o'rnatilgan davrda qay holatda bo'lganligi ilmiy tadqiq etilgan.

Chor Rossiyasi bosqiniga qadar Turkistonda keng tarmoqli xalq maorifi o'choqlari: maktablar va madrasalar mavjud edi. Bosqinchilar ularning faoliyati bilan tanishib, mustamlakachilikning bundan keyingi taqdiri uchun maktab va madrasalarning g'oyatda xavfli ekanligini tushunib yetgandilar. Shu boisdan ham chorizm o'lkada ruslashtirish siyosatini ishlab chiqadi. O'sha paxini yorgan siyosatchi K.P.Kaufman bu sohada ayniqsa jon kuydirib faoliyat ko'rsatadi. Chor Rossiyasi ma'murlarining Turkiston o'lkasida yerli xalq vakillarini qorong'ilik zulmat va zabunlikda saqlashga qaratilgan mustamlakachilik va zo'rlik siyosatiga qaramasdan XIX asrning oxiri XX asr boshlarida o'lkada milliy maorif, fan va madaniyat taraqqiyoti to'xtab qolgan emas.

Kalit so'zlar: ruslashtirish, madrasa, jadid maktablari, rus-tuzem maktablari mutavalliboshi, a'lamlik, chig'atoy tili, usuli savtiya.

Annotation. Today, in our independent Uzbekistan, we have an education system that meets international educational standards, has been shaped through criticism and discussions, and has developed by applying the experience of advanced countries. In the creation and development of this education system, our national identity, the views of our people, our mentality, and our sacred religion have certainly been taken into account. Therefore, we have every reason to be proud of this education system.

This article scientifically examines the condition of the education system before it reached its present state through various trials, debates, and discussions. In particular, it explores the state of education during the period of Tsarist Russian colonial rule, when our people experienced some of the hardest trials in their history.

Before the invasion of Tsarist Russia, Turkestan had a widespread network of public educational institutions, including schools and madrasas. After becoming familiar with their activities, the colonizers realized that schools and madrasas posed a serious threat to the future of colonial rule. Therefore, the Tsarist authorities developed a policy of Russification in the region. The well-known politician K.P. Kaufman was especially active and devoted in carrying out this policy. Despite the colonial and oppressive policies of the Tsarist Russian administration aimed at keeping the local population of Turkestan in ignorance, darkness, and helplessness, the development of national education, science, and culture in the region did not come to a halt in the late nineteenth and early twentieth centuries.

Key words: Russification, Madrasa / Islamic school, Jadid schools, Russian-native schools, Chief trustee / head administrator of a waqf or madrasa, Ignorance / backwardne, Chagatai language, Phonetic teaching method.

Podsho Rossiyasi davri ta'lim tizimi hamda bu jarayonlarda milliy jadid ma'rifatparvarlarimizning xalqimiz tafakkuri rivojiga qo'shgan hissasini ilmiy holisona yoritib berish muhim vazifa hisoblanadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov 1998-yildagi tarixchi olimlar bilan bo'lgan uchrashuvida "o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi, haqqoniy tarixni bilmay turib o'zlikni anglash mumkin emas"¹ degan fikrlari aynan yuqoridagi g'oyani asoslaydi². Ushbu bitiruv malakaviy ish orqali mamlakatimiz hududida chorizm davri ta'lim siyosatini ochib berish maqsad qilib olingan.

O'zbekiston jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'shgan madaniy markaz sifatida alohida ahamiyatga ega. Shu bilan bir qatorda har bir xalqning milliy qiyofasi va o'zligini saqlab qolishi masalasi ham muhim hisoblanadi. Ajdodlarimiz merosini har tomonlama o'rganish, ilmiy muomalaga kiritish, "...keng ko'lamlı demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Rennessans poydevorini yaratish"³ hamda kelajak avlod tarbiyasida undan unumli foydalanish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Tarixga nazar solsak, Buyuk ipak yo'lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o'choqlaridan biri bo'lganini ko'ramiz. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me'moriy obidalar, nodir qo'lyozmalar, turli osori atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi"⁴. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni, 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PQ-4038-sonli va 2017-yil 30-iyundagi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha "Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" PQ-3105-sonli qarorlari, 2018-yil 18-yanvardagi F-5181-son "Moddiy madaniy va arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to'g'risida" gi Farmoyishlarida hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu bitiruv malakaviy ish muayyan darajada xizmat qiladi.

Chor Rossiyasining ta'lim siyosati va Turkistonda maktablar tizimi.

Rus muhojirlari Turkiston general – gubernatorining farmoniga binoan o'lkada rus maktablari, rus tuzem maktablari, gimnaziya kabi maktablarni ochish va bu maktablarni kengaytirish hisobiga mahalliy maktablar, maktab madrasalarni siqib chiqarish maqsadida maorif islohotini o'tkaza boshladilar.

Bu bilan go'yoki, ular Markaziy Osiyo aholisining savodxonlik darajasini oshirmoqchi bo'ldilar va har bir qilingan ishni bo'rttirib ko'rsatishga urindilar.

¹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998. – Б.31.

² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Ўзбекистон Фанлар Академияси Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида"ги қарори. Тошкент. 1998 йил 27 июл // Халқ сўзи. 1998, 28 июль.

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 30 сентябрдаги Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқидан [электрон ресурс].<https://www.prezident.uz/uz/lists/view/3864>.

⁴ Ўша жойда., [электрон ресурс]. <https://www.prezident.uz/uz/lists/view/3864>

1917-yilgi to'ntarishgacha 21 foiz savodxon bo'lgan O'lka aholisini, yoppasiga savodsiz edi, deya kamsitishga urindilar, quruq bo'hton yog'dirdilar.

O'lka aholisini savodxon qilish uchun eng avvalo rus, rus tuzem, gimnaziya kabi o'quv maskanlari kerak, madrasa va "usuli qadimiya" eski usul maktablarida, otinlar maktablarida savod chiqarib bo'lmaydi degan siyosatni yurgizishga harakat qildilar.

Bunga biz 1897-yildagi Rossiya tomonidan o'tkazilgan aholini ro'yxati ma'lumotlarini ko'rsatishimiz mumkin. Masalan, o'sha aholi ro'yxatida qayd etilishicha, Markaziy (O'rta) Osiyo aholisining savodxonlik darajasi quyidagicha belgilangan: tojiklar – 99,5 %, qirg'izlar – 99,4 %, turkmanlar – 99,3 %, o'zbeklar – 98,4 %, qozoqlar – 97,9 % savodsiz deb hisoblangan.

Bu ko'rsatkichlarning barchasi uydurma edi. Aslida Turkiston o'lkasi xalqlarining savodxonlik darajasi chor Rossiyasi aholisining savodxonlik darajasidan past emas edi. Chunki, Turkiston o'lkasi xalqlari 1917 yilgi to'ntarishdan oldin shaxsiy va ommaviy maktablar, madrasalarda bilim olganlar, yuksak ilm egasi bo'lganlar.

Zero, yuqorida qayd etilgan aholi ro'yxati ma'lumotnomasida rus xalqidan, rus millatidan boshqa millatga mansub fuqarolarni ataylab kamsitish chor Rossiyasining asosiy mafkuraviy kurashi natijasidir. Chunki ular rus va rus-tuzem maktablarini bitirganlarnigina savodli deb hisoblanganlar. Hatto, ular dunyoviy maktablar ochish, ona tilidagi darsliklar, gazeta va jurnallar nashr qilish va hokazolarni qat'iy ta'qib qilar edilar.

Ayni vaqtda chor hukumati rus bo'lmagan aholi yashaydigan joylarda maktablar ochar, bu maktablar esa o'z oldiga ruslashtirish maqsadini qo'yar edi.

Chor hukumati tomonidan XX asrning 60 yillarida maktab ustavlarini tasdiqlanib, shular asosida boshlang'ich hamda o'rta maktablar qayta tuzilib, rus bo'lmagan xalqlar uchun maktablar tashkil etishga doir davlat hujjatlarini ishlab chiqishga kirishdilar.

Maktab ishiga taalluqli asosiy siyosiy va ideologiya sohasidagi ko'rsatmalar 1870-yilda chor Rossiyasi xalq maorifi noziri D.A.Tolstoy tomonidan ifodalab berilgan edi. "Bizning vatanimizda yashovchi barcha begona (rus bo'lmagan) xalqlarning ma'lumotli bo'lishining oxirgi maqsadi, deb ma'lum qilgan edi, u, - shubhasiz, ularni ruslashtirish va rus xalqi bilan birlashtirishdan iborat bo'lishi kerak". Ruslashtirish ko'rsatmasi 1870-yilda e'lon qilingan bo'lib, unga binoan rus millatiga mansub bo'lmagan barcha xalqlar uchta toifaga bo'lingan edi.

"Juda kam ruslashgan xalqlar", bularga Sharqiy Sibir va Povoljye xalqlari kirar edi. Bu xalqlar uchun ochilgan maktablarda o'qishni ona tilida boshlash va keyinchalik rus tilida o'qitishga o'tish tavsiya qilinardi.

"Ruslar ham yashaydigan rayonlarda yashovchi xalqlar". Bu joylardagi maktablarda o'qitishning dastlab rus tilida olib borish ayrim hollarda ona tilining yordamiga tayanish va mumkin qadar tezroq faqat rus tilida o'qitishga o'tish taklif qilinardi (masalan, gruzin bolalari o'qitiladigan maktablarda o'qitish shunday olib boriladi).

"Yetarli darajada ruslashgan xalqlar". Ukrainlar, bellarus va boshqalar, bularning maktablarida o'qitishni faqat rus tilida olib borish tayinlangan edi. Mazkur "Qoida"larni mana shu toifaga kiritilgan xalqlarga qo'llanishni 60 yillarda ijtimoiy harakat jarayonida vujudga kelgan ona tilida o'qitish tajribasini batamom siqib chiqarishga olib keladi. Mana shu umumiy direktiv hujjat asosida ulkan Rossiya imperiyasining ayrim hududlardagi maktablarning ta'lim-tarbiyaviy ishi prinsiplarini belgilab beradigan yo'l-yo'riqlar yaratiladi va e'lon qilinadi.

1776-yilda Markaziy Osiyo tumanining general-gubernatori huzurida Turkiston o'quv yurtlarining maxsus boshqarmasi tashkil etilgan bo'lib, avvalo, ruslashtirish siyosatini amalga oshirish vazifasi uning zimmasiga yuklatilgan edi.

Tegishli davlat hujjatlari bilan maktablarning ish tartibini belgilab va maktab idorasi organlari o'z maqsadlarida mustahkamlanib olgach, chorizm o'qituvchilarning faoliyatini injiqlik bilan sinchiklab nazorat qilish tizimini to'xtovsiz oshirib bordi.

Tarixda o'zbek xalqi ko'p bosqinchilarni ko'rgan. Masalan, mo'g'ul-tatar bosqinchiligini oladigan bo'lsak, ular odamlarni qirgan, boyliklarini talon-taroj qilgan... ammo madaniyatiga, tiliga va diniga tegmagan. Eng dahshatlisi, ruslar Turkistonda barcha bosqinchilik ishlarini olib borish bilan birga xalqning urf-odatidan, tili va dinidan ham ayirmoqchi bo'ldilar.

General Rozenbax esa shunday degan edi: "O'lkani ruslashtirish rejasini amalga oshirishda maktab katta ahamiyat kasb etishi lozim". Haqiqatdan ham mustamlaka davrida rus-tuzem maktablari vujudga keldi. Bu maktablarning asl maqsadi, o'lkani ruslashtirish edi. Afsuski bu o'rinda boshqa tishga tegadigan nozik bir holat ham bor. "Tuzemets" degani ruscha o'zbekcha lug'atda "mahalliy xalq", "tub aholi" deb tarjima qilingan. Rus olimi Vladimir Dalning "Velikorus jonli tilining izohli lug'ati" kitobida mana shunday jumlar yoziladi: "Tuzemets. Mestno'y otnosyahiyssa do izvestnoy strano'...Tuzemno'ye jiteli chasti Okeanii stoyat na nizzshey stupeni chelovechestva". XX asr boshlarida Turkistonda hammasi bo'lib 20925 ishchi bo'lgan, xolos. Temir yo'llar o'lkamizning barcha boyliklarini Rossiyaga tashib olib ketish maqsadida qurilgan. Yangi ochilgan turli maktablar mustamlakachi amaldorlar uchun tilmochlar tayyorlab berish uchun xizmat qilgan.

Musulmon aholisi yashaydigan joylarda qadimdan maktab-madrasa va hokazolar mavjud bo'lib, bularga qarshi chor hukumati Rossiyadagi ko'p sonli xalqlar uchun maxsus hukumat maktablari barpo qilar edi. Bu maktablarning ko'pchiligida o'qitish rus tilida olib borilar edi. Ularning biri – to'rt yillik, ikkinchisi – ikki yillik edi. Ba'zi bir to'rt yillik maktablarda internatlar ham bo'lib, ularda ko'proq feodallarning va mahalliy aholining boy qatlami bolalari ta'lim olardi. Turkistonning 1880-yilda Rossiya tasarrufiga o'tganidan keyin Markaziy Osiyodagi rus-tuzem maktablari ancha mashhur bo'ldi. Ammo mehnatkashlarning bolalari uchun yaxshi yo'lga qo'yilmagan ikki yillik savod chiqarish maktablari ochilgan edi. O'qish muddati ikki yil bo'lgan milliy maktablardan, masalan, qozoqlarda ovul maktablari, deb atalgan maktablar tipik maktab sanalar edi.

Dastlabki ovul maktablari 1892-yilda To'rg'ay oblastining ovullarida tashkil topgan bo'lib, aholini ko'chmanchilik turmushiga moslashtirilgan edi. Ovul maktablarida rus tili, arifmetika qozoq alifbosi va islom dini o'qitilar edi. Bu maktablarda o'qitish o'quvchilarning ona tilida olib borilardi, lekin ularning saviyasi juda past edi. 1916-yilda 169 ta ovul maktabi bo'lib, ularda 5 ming o'quvchi o'qirdi, bu maktab yoshidagi barcha qozoq bolalarining faqat bir foizga yaqinligina tashkil etardi, xolos.

Markaziy Osiyo va Shimoliy Kavkazning musulmon aholisi uchun ularni ruslashtirish maqsadini ko'zda tutgan rus-tuzem maktablari XIX asrning 80-yillaridan boshlab ochila boshladi. Bu maktablar o'z dasturlariga ko'ra rus ministerlik maktablaridan islom dinining o'qitilishi bilangina farq qilar edi. Rus-tuzem maktablarida o'qitish rus tilida, diniy ta'limot esa o'quvchilarning ona tilida olib borilardi.

Ta'lim sohasida tubdan o'zgarishlar sodir bo'lgan. Kaufman rus maktablariga nisbatan, dushmanlik kayfiyatidagi musulmon maktablarini inqirozini tezlatish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirdi:

1. Diniy ma'muriy lavozim raislikni⁵ bekor qildi, buning natijasida ko'pchilik ota -onalar domlaga sarflanadigan ortiqcha harajatlardan qutuldik, deb bolalarni maktabga jo'natmay qoyishgan.

2. Mutavalliboshi lavozimi bekor qilindi, bu bilan vaqflar ustidan nazorat to'xtagan. Mutavallilar vaqf daromadlarini talon-taroj qilishi kuchaygan.

3. A'lamlilik bekor qilinib mudarrislar ustidan nazorat yo'qoldi, ko'p madrasa mudarislari o'z ishlariga sovuqqonlik bilan qaray boshlashdi.

4. Madrasani tugatib kattaroq lavozimga ko'tarilish imkoniyati qisqardi. Deyarli barcha ma'muriy lavozimlarni rus ofitserlari egallay boshladilar. Madrasani tamomlab kelganlar faqat masjidida imomlik, maktabda domlalilik hamda shariat qonunlarini himoya qiluvchi qozilik lavozimini egallashlari mumkin bo'lgan. Shu bilan birga eng quyi ma'muriy mansablarga olinadigan bo'ldi.⁶ Bu davrda o'qish va yozish birgalikda olib borilmagan. Birinchi navbatda o'qish keyin yozuv o'rgatilgan. O'quvchilarga "Qu'ron xati" ya'ni alif, be, te, se ni keyin boshqa harflarni quruq yodlash vazifa qilib berilgan. Shu tariqa o'quvchiga ta'lim berishda davom etishgan. O'quvchining savodini nazorat qilish uchun to'g'ri kelgan kitobdan o'qitib, agar u tutulmay o'qib bersa savodi chiqqan, yoki tutulib o'qiy, bo'g'inlar olmasa savodi chiqmagan deya xulosa qilishgan. Savod o'rgatishda hijo ya'ni bo'g'in usulidan foydalanishgan. Bu usul "Hujjai qadimiy" deb nomlanib uch bosqichni o'z ichiga oladi. Harf nomlarini yod olish, bo'g'inlarni birlashtirish kabilar. Ba'zida mudarrislar o'quvchilarga Qur'ondan o'qib berishgan va ular ham ketidan takrorlashgan. Eski yozuvda yozish bolalar uchun qiyinchilik tug'dirar, kech savod chiqarishar edi. Sababi shundan iboratki arab alifbosidagi harflar alifboda va so'z hosil qilgan paytda boshqacha ko'rinishda yozish kerak edi. Buning isbotini quyidagi maktubda ko'rishimiz mumkin:

"Agar arab alifbosi bunchalik qiyin bo'lmasa edi, unda oltitalab harfning shakli bir xil bo'lmasa edi va unli tovushli bo'lganda edi, men butun grammatikasini 48 soat ichida yodlab olgan bo'lar edim"⁷.

Ahmad Donish Buxorodagi tartibsizliklar haqida so'zlar ekan, davlat bu ahvolda uzoq yashay olmasligini farang hokimi tilidan ayovsiz fosh qiladi: "padshoxlarning saqlanishlari, ularning salomat turishlari, mamlakatning obodligi, fuqaroning to'qligi, sipohlarning roziligiga bog'liqdir. Sening gapingga qaraganda, yerlar harob, fuqaro och, sipohlar muhtoj, amaldorlar, daftardorlar zolimdirilar. Bunday saltanat, bunday davlat hech vaqt uzoq yashay olmaydi. Otasi yashasa ham bolalari uning o'rniga o'tira olmaydilar. Hukumat intizomi butunlay buziladi... Bunga o'xshash mamlakatni hukumat, davlat deyish to'g'ri emas, uning gadolar podshohi, o'jizlar hukumati desalar, to'g'ri aytgan bo'lardilar"⁸. Mana shunday og'ir sharoitda o'zbek jadid pedagoglari ona tili hamda milliy adabiyotni o'qitishga millatning hayot yoki mamoti masalasi sifatida qaradilar, ona tili va adabiyot o'qitishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqdilar. Bunday masalalar ularning darsliklarida o'z ifodasini topdi. Milliylik va milliyat masalasi Behbudiy, Munavvarqori, Avloniy,

⁵ Xon davrida rais- diniy urf -odatlarini marosimlarni bajarilishi, ota -onalar bolalarini maktabga berganligini nazorat qilib borar edi va musulmonchilikka rioya qilmaganlarni jazolar edi. O'zRMDA. 2282 jamg'arma. 1-ro'yhat, 163-ish 288-varaq.

⁶ O'zRMDA. 2282 jamg'arma. 1-ro'yhat, 41-ish, 90-varaq.

⁷ К.Маркс и Ф. Энгельс. Соч. т, 21. – М., 1929. 495-бет.

⁸ Ahmad Donish .Navodir ul vaqoe. – T.: Fan, 1964-yil. 274-bet.

Fitrat kabi mutafakkirlar faoliyatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Mahmudxo'ja Behbudiyning bu haqdagi so'zlariga e'tibor bering: "Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondurki, makotib taraqqiyning boshlang'ichi, madaniyat va saodatning darvozasidir. Har millat eng avvalo makotibi ibtidoiysini zamoncha isloh etib ko'payturmaguncha, taraqqiy yo'lig'a kirub, madaniyatdin foydalanmas. Binoan alayh, yer yuzidagi barcha millatlar o'z bolalarini ibtidoiy tarbiyasig'a va maktablarining har jihatdan intizom va akmolig'a ahamiyat berib, bolalarini milliy va diniy ruhda mukammal suratda yetushdururlar. Aning uchundurki, o'zga millatlar diniy va milliy hissiyotg'a molik bo'lub, har ishda diyonat va milliyatni muqaddam tutarlar"⁹.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak O'rta Osiyo xonliklarida Chor Rossiyasi istilosiga qadar ham undan keyin ham ta'lim tizimi sifati yaxshi darajada bo'lgan. Ayrim sohalarda va fanlarda oqsash hollari ko'zatilganligini tan olishdan o'zga choramiz yo'q. Masalan, aniq va tabiiy fanlardagi ta'lim tizimi o'rta asr mualliflari asarlarini o'rganish bilan chegaralangan, yangilik kiritilmagan. Lekin bu butunlay to'xtab qolganligini anglatmaydi. Ammo ijtimoiy- gumanitar fanlar anchagina yaxshi rivojlangan edi. Hamda Chor Rossiyasi istilosidan keyin ham O'rta Osiyo hududida milliy mafkuradan uzoqlashmagan holdagi ta'lim tizimi vujudga keldi. Barcha o'lkalarda, xususan, Turkiya, Afg'oniston, Eron hududlarida shakllanganligidagi kabi Turkiston o'lkasida ham jadidchilik oqimi keng yoyildi va bu davrni o'z davri talab va ehtiyojidan kelib chiqqan holda milliy ma'rifatparvarlik harakati vujudga keldi. Xalqni savodli qilishga, uning ma'naviy dunyosini boyitishga harakat qilgan millat qahramonlari Chor Rossiyasining hech qaysi bir ta'qiblari va cheklovlaridan qo'rqmay harakat qildilar. Ular orasida O'rta Osiyo jadidlarining otasi Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy va boshqa bir qator ma'rifatparvarlarni ham keltishimiz mumkin. Ular faoliyatining asosi Yangi usul maktablarini ochish, yangi darsliklar asosida mahalliy aholi orasida savodli qatlamni ko'paytirish, kerak bo'lsa o'z mablag'laridan ularni chet o'lkalarga o'qishga yuborish bu haqiqiy vatanparvarlik namunasi bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q / Islom Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent: Sharq, 1998. – 31-bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori. – Toshkent, 1998-yil 27-iyul // Xalq so'zi, 1998-yil 28-iyul.
3. Karl Marks va Fridrix Engels. Asarlar. 21-jild. – Moskva, 1929. – 495-bet.
4. Ahmad Donish. Navodir ul-vaqoe. – Toshkent: Fan, 1964. 274-bet.
5. Xonlik davrida rais diniy urf-odatlar va marosimlarning bajarilishini, ota-onalarning bolalarini maktabga berganligini nazorat qilib borgan hamda musulmonchilik qoidalariga rioya qilmaganlarni jazolagan. O'zRMDA, 2282-jamg'arma, 1-ro'yxat, 163-ish, 288-varaq.
6. O'zRMDA, 2282-jamg'arma, 1-ro'yxat, 41-ish, 90-varaq.
7. [электрон ресурс]. <https://www.prezident.uz/uz/lists/view/3864>
8. Behbudiy M. Muhtaram yoshlarga murojaat. "Oyna" jurnali. 1914-y. 41-son.
9. Djurayev D.U. Turkiston an'anaviy maktablari faoliyati tarixidan. XIX asr ikkinchi yarmi "Zamonaviy ta'lim" ilmiy amaliy jurnali, 2017-yil, 7-son, 19-bet.
10. Hoji Muin. Birinchi o'zbek alifbosi. "Maorif va o'qig'uvchi jurnali". 1926. 2-son.
11. Маркс К. и Энгелс Ф. Соч. т, 21. – М., 1929. – С.495.

⁹ Behbudiy M. Muhtaram yoshlarga murojaat. "Oyna" jurnali. 1914-y. 41-son.